

## BOSHLANG'ISH SINFLARDA O'QUV LUG'ATLARIDAN FOYDALANISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Homidova Zarina Rustam qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning lug'atini boyitish, o'quv lug'atlaridan foydalanish , adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish,nutq madaniyatini shakllantirish, nofaol so'zlarni faol so'zga aylantirish yo'llari,nutq ta'sirchanligini ta'minlash haqidagi ma'lumotlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** So`z, lug`at turlari, imloviy savodxonlik, atama, imloviy lug`at, ibora, faol va nofaol so'zlar, dunyoqarash.

Bugungi kunda axborot manbalari yuqori darajada taraqqiy etayotgan bir davrda har taraflama mukammal, zamonaviy va qulay lug'atlarga bo'lgan talabning oshayotgani barchamizga sir emas. Bilamizki, turmush tarzining o'zgarishi , bиринчи navbatda, tilda aks etadi. Bugungi kunda yangi tushunchalar, nomlar , atamalar tilimizga kirib kelyapti, ichki va tashqi imkoniyatlar asosida tilimiz leksikasi keskin boyib bormoqda; ko'pgina atamalar iqtisodiy-siyosiy, manaviy-madaniy jihatdan iste'moldan chiqib,talaygina so'zlar bugungi avlod uchun izohtalab, tushunarsiz bo'lib boryapti. Taxminan 15-20 yil oldin maktab darsliklarida lug'atlarni ilova qilishga deyarli ehtiyoj sezilmas edi . Hozirgi kunda esa har bir yaratilgan darsliklarning so'ngida, hatto ba'zan har bir bo'lim oxirida lug'atlarga duch kelishimiz mumkin.Bu esa lug'atlarning tabiiy ravishda ta'limning tarkibiy qismiga aylanib bo'lganligidan, tilimizdagи so'zlar doirasi kengayib borayotganligidan dalolat bermoqda. Mustaqillik davrida yurtimizda boshlangich va yuqori sinf oquvchilari uchun turli lingvistik lug'atlar nashr etildi.Biroq kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich va yuqori sinflardagi ona tili va adabiyot darslarida lug'atlardan foydalanish darjasи pastroq. Ko'pchilik o'quvchilar unga zarur bo'lgan lug'atlar uning yonida, kitob javonida turgan bo'lsa ham, qo'lida bo'lgan xazinadan foydalanishmaydi. Buning asosiy sababi shuki, o'quvchilarda ona tili va adabiyot (o'qish savodxonligi) darslarida lug'at bilan ishslash ko'nikmasi shakllantirilmagan.O'quvchilarga lug'atlardan foydalanishni o'rgatishni boshlang'ich sinflardan boshlash lozim. Bolada ta'limning dastlabki bosqichlarida lug'atlarga murojaat qilish ehtiyoji uyg'otilmasa, unda yordamchi vositalarda mo'ljal olish va kerakli ma'lumotni tez topib olish ko'nikmasi shakllantirilmasa, uning mavjud lug'atlar boyligidan tolaqonli foydalanuvchi shaxsga aylanishi qiyin masala bo'lib boraveradi.

Hozirgi kunda yurtimizda vazifasiga ko'ra turlicha bo'lgan ko'plab lug'atlar nashr qilingan va nashr qilinmoqda. Masalan, yuqori sinf o'quvchisi nafaqat imlo lug'atidan,

balki izohli, so'z yasalishi, o'zlashma so'zlar, eskirgan so'zlar, sinonim, antonim, omonim va hokazo lug'atlardan foydalanishi mumkin. Biroq o'quvchi o'zidan bilib lug'atga murojaat qiladimi?!

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchisining qo'lida ko'p miqdordagi lug'at bor. Lug'at bilan ishslash har bir darsga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi: so'z ma'nosini tushuntirish, so'zni to'g'ri yozish, to'g'ri talaffuz qilish, uning tuzilishi (yasalishi)ni izohlash. Barcha so'zlar oldindan doskaga yozib qo'yiladi. Bolalarning fikri lug'atdagi to'g'ri variant bilan qiyoslanadi. Bu o'rinda bolalarga uyga vazifa ham beriladi: lug'atdan so'zning ma'nosini (izohli lug'at), to'g'ri yozilishi (imlo lug'ati), to'g'ri talaffuzi (orfoepik lug'at), har qanday iboraning ma'nosini (frazeologik lug'at) va hokazoni aniqlash. Keyingi darsda topshiriq tekshirilib, yangi topshiriq beriladi. Shunday qilib o'quvchilarda lug'at bilan ishslash ko'nikmasi, so'ng malakasi ham shakllanadi. Har bir darsda o'quvchilarga lug'at bilan ishslash uchun individual topshiriq bajartirish: o'tilgan mavzu bo'yicha lug'at diktanti tuzib kelishni, keyingi darsda esa o'qituvchi rolini bajarishni tavsiya qilish mumkin. Bunday ish turi bolalarda qiziqish uyg'otishi shubhasiz.

Bularning barchasi o'qituvchining kichik yoshli o'quvchilarda lingvistik lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari lug'at bilan ishlashi uchun quyidagilarni bilishi (aniqlashi) kerak:

- 1)lug'atning nomlanishini;
- 2)lug'atning muallifi;
- 3)lug'atning qaysi turga oidligini;
- 4)lug'atda so'zlarning joylashish tartibini: alifbo, uyali, mavzuviy tartibda joylashtirilganligini.

Yangi texnologiyalardan foydalanish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. Lug'at bilan ishslash esa – ona tilini o'rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri – madaniyatni o'stirish texnologiyasidir. O'quvchilarda lug'atning barcha turidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bu ,shubhasiz, ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Bobojonov Sh., Islomov I. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati (maktab o'quvchilari uchun). Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2007
2. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida G`ulomova, Sharofat Yo`ldasheva, Sharofjon Sariyev "Lug'at ustida ishslash metodikasi"
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 jild. Madvaliyev A.tahriri ostida. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2006.